

MTTLARNI OBODONLASHTIRISH VA KO'KALAMZORLASHTIRISH XORIJ TAJRIBASI

*Jizzax viloyati Yangiobod tumani DMTT-3 direktori
Tangirqulova Ra'no Niyazqulovna*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tashkilotlar va atrof muhitni obodonlashtirish ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketishni tashkil etish va ulardan foydalanish sohasida ta'lim tashkilotlarida mavjud muammolarga alohida e'tibor qaratish muhimligi bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется озеленению образовательных организаций и озеленению окружающей среды, даются предложения и рекомендации по важности уделения особого внимания проблемам, существующим в образовательных организациях в сфере организациии и использования твердых бытовых отходов.

Abstract. In this article, special attention is paid to the greening of educational organizations and the improvement of the environment, suggestions on the importance of paying special attention to the existing problems in educational organizations in the field of the organization of transportation of solid household waste and their use, and recommendations are given.

Kalit so'zlar: obodonlashtirish , ko'kalamzorlashtirish , atrof-muhit, ijtimoiy barqarorlik, rejalashtirish, tabiat, ta'lim tashkilotlari, bolalar .

Ключевые слова: ландшафтный дизайн, ландшафтный дизайн, окружающая среда, социальная устойчивость, планирование, природа, образовательные организации, Дети.

Key words: beautification, greening, environment, social stability, planning, nature, educational organizations, children.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari uchun shaharlardagi, ayniqsa mamlakat poytaxtlaridagi ekologik tozalik barcha darajadagi rasmiy hokimiyat organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, ommaviy axborot vositalari va shu bilan birgalikda aholining alohida e'tibor markazida bo'ladi. Shaharlarni obodonlashtirish hamisha eng dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lgan. Obodonlashtirish so'zini ikki xil ma'noda tushunish mumkin: tor ma'noda va keng ma'noda. Birinchidan, tor ma'noda – uy-joy, hovli va faqatgina bir kishiga yoki oila a'zolariga tegishli bo'lgan hudud. Ikkinchidan, keng ma'noda – rejalashtirish, kommunal qurilish, uy-joy va yer masalalari, yo'laklar, shaharning yashil maydonlari, ko'chalarni parvarish qilish, ko'cha transporti, shahar aloqalari, shahar

yoritilishi, isitish, shahar ekologiyasi, piyodalar qatnovi zich bo'lgan va kam bo'lgan yo'laklar shular jumlasidandir. Bugungi kunda butun dunyoda chiqindilarning insonlar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan xo'jalik faoliyatida oqilona foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan katta loyihalar amalga oshirilmoqda. MTTlarda bolalarni tabiatga bo'lgan mehrini oshirish hamda jonli tabiat bilan hamnafas yashashni singdirib borish lozim. Bu bilan atrof muhitni tabiarni saramjon ozoda saqlash bobodonlashtirish davrida ota-bobolaridan ko'kalamzorlashtirish yo'llarini oil va MTT hamkorligiga olib borish lozim. Sababi har yili yetti million kishi havo ifloslanishi ta'sirida vafot etadi. Turli gazlar ta'sirida ifloslanishlardan kelib chiqadigan kasallarni davolash uchun har yili 1 trillion dollardan ziyod mablag' sarf etiladi. Havoni ifloslanishi nafaqat aholi salomatligiga, balki atrof – muhit uchun ham jiddiy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu o'z – o'zidan daryo, okaenlarda kislorodni kamaytiradi, biologik xilma – xillikni kamaytiradi shu bilan birgalikda iqlim o'zgarishlariga hissa qo'shadi. MTTlarni obodonlashtirishda har bir rahbar matof muhitni, bino inshatlarni toza ozoda saqlamog'i lozim. Bugungi kunda butun dunyoda chiqindilarning insonlar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan xo'jalik faoliyatida oqilona foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan katta loyihalar amalga oshirilmoqda. Sababi har yili yetti million kishi havo ifloslanishi ta'sirida vafot etadi. Turli gazlar ta'sirida ifloslanishlardan kelib chiqadigan kasallarni davolash uchun har yili 1 trillion dollardan ziyod mablag' sarf etiladi. Havoni ifloslanishi nafaqat aholi salomatligiga, balki atrof – muhit uchun ham jiddiy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu o'z – o'zidan daryo, okaenlarda kislorodni kamaytiradi, biologik xilma – xillikni kamaytiradi shu bilan birgalikda iqlim o'zgarishlariga hissa qo'shadi. Shuningdek chiqindini olib ketish uchun to'lov miqdorini belgilash vakolatiga ega bo'lishi mumkin, chiqindilarni yo'q qilish, qayta ishlashga litsenziya va ruxsatnoma berish aksariyat hollarda davlat yoki uning hududiy vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatni obodonlashtirish va chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati narxlari turli xorijiy davlatlarda turlicha belgilab olingan: AQShda yagona tarifga asosan, Kanadada idish hajmiga qarab, Seulda umumiy to'lovda va boshqalar.

AQSh barcha ta'lim tashkilotlari va shaharlarida chiqindini olib ketish odatda yagona tarif bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu xizmatning o'rtacha oylik narxi 9 dan 70 AQSh dollargachani tashkil qiladi. Chikagoda joylashgan turar-joy binolarida yashovchi aholi Ko'chalar va sanitariya departamenti tomonidan taqdim etiladigan chiqindini tashish xizmati uchun har bir turar-joyga o'rtacha oylik 9,5 AQSh dollari miqdorida pul to'laydi. Mazkur summa suv va kanalizatsiya xizmatlari bilan birgalikda umumiy umumiy kommunal to'lovi tarkibiga kiritilgan.

Kanadaning Toronto va Avstraliyaning Sidney shaharlarida chiqindi idishining xajmiga qarab to'lovlar amalga oshiriladigan tariflar dasturi amal qiladi. To'lov miqdori 270-516 AQSh dollarini tashkil etib, unga aholini chiqindisini olib ketish, ko'cha va ta'lim tashkilotlarida chiqindilarini, organik, gabariti katta bo'lmagan va metall jismlarni hamda eski elektronika buyumlarini to'plash, qayta ishlash kiradi.

Amsterdamda chiqindi uchun to'lov oilada yashovchi fuqarolar soniga qarab amalga oshiriladi, bir kishi turadigan xonadon uchun yillik 326 yevro miqdoridagi to'lov amalga oshirilsa, bir necha kishilik oila 435 yevrogacha mablag' sarflashi mumkin.

Seulda fuqarolar kvartira haqi uchun umumiy to'lovni to'laydi, uning tarkibiga elektr energiyasi, suv, hududni tozalash, liftlarga xizmat ko'rsatish, chiqindini olib ketish kabi xizmatlar kiradi. Chiqindi uchun to'lov "qo'shimcha xizmatlar" tarkibiga kiritilgan bo'lib, umumiy to'lovning 10 foizidan oshmagan miqdorda o'rnatiladi. Janubiy Koreya chiqindini qayta ishlab tizimining yana bir o'ziga xos jihati bu oziq-ovqat chiqindisini alohida jamlanishidir. Har bir chiqindi yig'ish shoxobchasida oziq-ovqat qoldiqlarini tashlash uchun alohida konteyner ajratilgan, biroq uni faqatgina ushbu chiqindi yig'ish shoxobchasiga birlashtirilgan turar-joy binolari aholisi maxsus karta orqali ochishi mumkin. Qutiga kiritilgan oziq-ovqat qoldiqlarining vazni avtomatik ravishda qutida o'lchanadi va fuqaro hisobiga yozib boriladi, oy yakunida barcha hisoblar jamlanib, qoldiqni utilizatsiya qilish harajati chiqariladi hamda u qo'shimcha xizmatlar tarkibida kvartira haqi uchun umumiy to'lovga qo'shiladi. Umuman ushbu davlatlarda chiqindilarni tasniflash, to'plash, tashish hamda mahalliy, sanoat va xavfli chiqindilarni qayta ishlashning asosiy jihatlarini tartibga soluvchi qonunchilik amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1 "Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.01.2013 yildagi 4-son Qarori.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2017 yildagi PQ-Qarori, Hududlarning jadal rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/docs/3302438>.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy MUROJAATNOMASI. (2020) [https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisiga_murojaatnoma_si_\(2020_yil_24_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisiga_murojaatnoma_si_(2020_yil_24_yanvar))